

5-SINF ONA-TILI DARSLIKLARI HAQIDA AYRIM

MULOHAZALAR.

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 302-guruh

talabasi, Ibragimova Nozima,

Ilmiy rahbar: Usmonov Aslam

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida 2020-yi 5-sinf o'quvchilari uchun ona tili va adabiyot darsliklari to'la yangilangan shaklda nashrdan chiqdi. Ushbu darslik ancha takomillashgan, bir qancha yangiliklar va ijodiy yondoshuvlarga boy. Xususan, bolalar tafakkurini charxlovchi, ilmiy salohiyatini yuksaltiruvchi matn va hikoyalar kiritilgan, lug'atlar bilan tanishtiruvchi eslatmalar berib o'tilgan, mashqlar doirasida mahoratli shoirlarning tarbiyaviy va badiiy-ğoyaviy mazmunga ega b'olgan she'rlari keltirilgan. Biroq hech bir ish kamchiliklarsiz b'olmasligini inobatga olib, ushbu darslik borasida o'z fikr va mulohazalarimizni berib o'tmoqchimiz. Quyida ushbu fikrlarga t'oxtalamiz:

Masalan k'ochirish qoidalarga bağishlangan 69-darsga e'tiborimizni qaratamiz: ushbu mavzu yuzasidan qoidalar va ular asnosida topshiriq, mashqlar berib o'tilgan. Keling 251-mashq bilan tanishamiz: "K'ochirish qoidalari buzilgan s'ozlarni belgilang va ularni daftaringizga t'og'irlab k'ochiring". Mashq uchun quyidagi s'ozlar keltirilgan: den-giz, ke-tin-glar, o-ta-la-ri, Nam-Du va h.z. O'quvchilar ushbu mashqni qoidada aytib o'tilgan: sh, ch, ng harflar birikmasi diom birgalikda yoziladi izohi orqali ng harf birikmasini ajratmasdan b'og'inga k'ochirish haqida bilib oladilar. Ammo bir savol tuğiladi o'quvchilar dengiz s'ozini b'og'inga de-

ngiz shaklida kòchiradilarmi yoki deng-iz? Biz ana shunday savollarga dars davomida òquvchilar tomonida tushunarsizlik bòlishiga yòl qòymaslik va vaqtdan unumli foydalanish uchun ushbu ma'lumotni ham qoidaga kiritishimiz maqsadga muvofiq deb òylaymiz - Ng harf birikmasi sòzlarda ikki unli òrtasida kelsa bògin kòchirish jarayonida 2-tomon unli bilan birgalikda kòchiriladi, masalan, de-ngiz, kò-ngil, si-ngil kabi.

Darslik bilan tanishish jarayonida luğat bilan ishlash soatlarining kòpaytirilganligiga guvoh bòlamiz. Bu albatta òquvchi til boyligining òsishi, notanish sòzlarning izohini tushunishi uchun foydadan holi emas. Biroq "Luğatshunoslik" bòlimi bilan tanishganimizda quyidagi taklif va mulohazalarga tòxtaldik. Xususan, ushbu bòlimda topshiriqlar kesimida òquvchilarga " Òzbek tilining izohli luğati" , "Òzbek tilining imlo luğati" dan foydalangan holda mashqlarni bajarish vazifasi yuklatilgan. Vaholanki, 5-sinf òquvchilarini izohli luğat bilan ta'minlashning iloji yòq, (maktab darsliklari taqchilligi kuzatilayotgan bir paytda) maktab kutubxonalarining hammasida ham ushbu resursni uchratmaymiz, bòlgan taqdirda ham butun sinfni ta'minlash imkonsiz. Òqituvchida manbaa bor ham deylik, bunday holatda sinf uchun umumiy dars òtishga tògri keladi, biroq mashqlarda berilgan topshiriqlarning ayrimlari mustaqil va uyda bajarish uchun mòljallangan. Taklifimiz shuki, mashqalar berilish jarayonida òquvchining salohiyati hamda imkoniyati inobatga olingani maqsadga muvofiqdir. Shunda kòzlagan natijaga oson erishamiz.

Albatta bòlimning yutuqli tomonlari juda kòp, masalan, 114-darsning 391-mashqida "Òzbek tilining izohli luğati"dan sòzlar keltirilgan. Bu

mashq esa òrinli va òquvchilarni ham izohli luğat ham notanish sòzlar izohi bilan tanishtiradi. Xuddi shuningdek, 395 va 396-mashlarda ham òquvchilar tarix va tibbiyot fanlariga oid sòzlar izohi bilan tanishtirilgan.

Albatta, darslikning mukammal va sifatli bòlishi òquvchilar salohiyatini yuksaltirishda, kelajakda vatan ravnaqi uchun òz hissasini qòshadigan ma'lum bir sohaning kerakli kadrlarini tayyorlashda ahamiyatga molikdir. Biz ham kelajakda maktabda faoliyat yuritar ekanmiz, darslik bilan ishlaymiz, òquvchilarga bilim berishda kòmakchi sifatida foydalanamiz. Shunday ekan darslikning har tomonlama mukammal ishlanganligi nafaqat òquvchilar balki òqituvchi faoliyatining samarali bòlishida muhim. Zero bizning maqsadimiz ham shudir.